JIZZAX VILOYATI DO‘STLIK TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 22 - dekabr 346-3-47-Q/22 Do‘stlik tuman hokimligi

Tuman hududidagi 4H-1223/4P-31 avtomobil yo‘li Oq oltin SIU aylanma yo‘liga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-, 25-moddalari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y, 9-son, 320-modda), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 28-son, 645-modda), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y., 09/22/172/0298-son) ijrosini hamda tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Do‘stlik tumani hududidagi 4H-1223/4P-31 avtomobil yo‘li Oq oltin SIU aylanma yo‘liga ilovaga muvofiq yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

2. Tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (Z.Qulbekov)ga, tuman hududidagi 4H-1223/4P-31 avtomobil yo‘li Oq oltin SIU aylanma yo‘liga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXB (Z.Anarboev) tomonidan mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi va tuman hududidagi transport vositalarining harakatlarini tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

5. Ushbu qaror “Do‘stlik hayoti” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Tinchlikov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **SH.Darvishev**

Do‘stlik tuman hokimining
2022 yil 22 dekabrdagi
346-3-47-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi balansidagi ichki yo‘llarga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari bo‘yicha

MA’LUMOT

T/R	**Ko‘cha nomi**	**Joylashtirish joyi**	**Soni**	**Yo‘l belgisi nomi**
1.	4H-1223/4P-31 avtomobil yo‘li Oq oltin SIU aylanma yo‘li	8+PK 350 o‘ng tomon	1	1.21. Bolalar
2.	4H-1223/4P-31 avtomobil yo‘li Oq oltin SIU aylanma yo‘li	8+PK 500 chap tomon	1	1.21. Bolalar
3.	4H-1223/4P-31 avtomobil yo‘li Oq oltin SIU aylanma yo‘li	8+PK 500 o‘ng tomon	1	1.31. Sun’iy yo‘l notekisligi
JAMI:			**3**	